



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 27 - iyun

VI-62-109-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Tumandagi Fermer xo‘jaliklarning yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligi holati va “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi hamda “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlarning tumanda ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-oktabrdagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5199-son Farmoniga muvofiq tumanda fermer xo‘jaliklarining yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligi haqida tuman hokimi o‘rinbosarining hisoboti eshitilib, masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tumandagi Fermer xo‘jaliklarning yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligi holati va “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi hamda “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlarning tumanda ijrosi yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari J.Po‘latovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari Kengash (T.Eshpo‘latov)ga:

fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

- fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining ekin maydonlaridan samarali foydalanishdagi shaxsiy manfaatdorligi va mas’uliyatini oshirish;

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ekin yer maydonlaridan samarali foydalanishni ta’minlash bo‘yicha vazifalarini aniq belgilash hamda ularning javobgarligini

kuchaytirish;

- ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini kuchaytirish;

- fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta’minalash, ularning tayyorlov, qayta ishlash, ta’minot va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarida zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish;

yer egalarining bilim va tajribalarini oshirish, ularni zarur ma’lumot va axborotlar bilan ta’minalash tizimini rivojlantirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, fermer xo‘jaliklarining mehnat munosabatlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish;

amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har chorak yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (J.Po‘latov), tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi bilan birgalikda tumanda dehqonchilik madaniyatini oshirishda munosib hissa qo‘sghan va ishlab chiqarishda yuksak natijalarga erishgan fermer, dehqon xo‘jaliklari rahbarlari va tomorqa yer egalarini «Ilg‘or fermer», «Mehnatkash dehqon» va «Namunali tomorqachi» ko‘krak nishonlariga tavsiya etish orqali ularni munosib rag‘batlantirib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Xudoyberdiev), tuman hokimining o‘rinbosari (J.Po‘latov) zimmalariga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov